<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna, Gulimbayeva Barno</i>	
Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе "школа–махалля" в Узбекистане ...	570
<i>Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли</i>	
Mantiqiy masalalarni bajarishning metodik usullari .....	575
<i>Tosheva Yulduz</i>	
Bo'lajak ofitserlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik-psixologik omillar (jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalari misolida) .....	579
<i>Yarmatov Akbar Normurotovich</i>	
Yosh harbiy xizmatchi ofitserlarda muloqot madaniyatini samarali shakllantirish muammosining xorijiy tadqiqotlardagi talqini .....	582
<i>Matyakubov Elyor Rajapovich</i>	
Umumiy pedagogika fanini o'qitishda formativ baholash metodikasini joriy etish texnologiyasi .....	586
<i>Sobitjon Xalimov Hoshimjonovich</i>	
Формирование компонентов эмоционального интеллекта у детей дошкольного возраста с дефектами речи на основе сказкотерапии .....	590
<i>Эркинова Фазилат Мирозиз кизи</i>	

# UMUMIY PEDAGOGIKA FANINI O'QITISHDA FORMATIV BAHOLASH METODIKASINI JORIY ETISH TEXNOLOGIYASI

Sobitjon Xalimov Hoshimjonovich

University of Business and Science

pedagogika va psixologiya kafedrasini o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada umumiy pedagogika fanini o'qitish jarayoniga formativ baholash metodikasini joriy etishning nazariy, metodik va texnologik asoslari tahlil qilingan. Formativ baholash – bu ta'lim jarayonida o'quvchi yoki talabning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan dinamik baholash tizimi bo'lib, u o'quvchi faoliyatini doimiy tahlil qilish, oraliq natijalarni aniqlash hamda o'zlashtirishdagi individual xatoliklarni o'z vaqtida tuzatish imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** formativ baholash, umumiy pedagogika, ta'lim texnologiyasi, o'quv motivatsiyasi, refleksiya, diagnostika, raqamli baholash tizimi, uzluksiz ta'lim, kompetensiya, o'quvchi faolligi.

**Abstract:** The article analyzes the theoretical, methodological, and technological foundations of implementing the formative assessment methodology in the teaching process of the "General Pedagogy" discipline. Formative assessment is a dynamic evaluation system aimed at developing learners' knowledge, skills, and competencies. This method allows for the systematic analysis of students' performance, identification of intermediate results, and timely correction of individual learning errors during the educational process.

**Key words:** formative assessment, general pedagogy, educational technology, learning motivation, reflection, diagnostics, digital assessment system, lifelong education, competence, student activity.

**Аннотация:** В статье анализируются теоретические, методические и технологические основы внедрения методики формативного оценивания в процесс преподавания дисциплины "Общая педагогика". Формативное оценивание представляет собой динамическую систему, направленную на формирование у обучающихся знаний, умений и компетенций. Данная методика позволяет систематически анализировать деятельность обучающихся, выявлять промежуточные результаты и своевременно корректировать индивидуальные ошибки в процессе усвоения учебного материала.

**Ключевые слова:** формативное оценивание, общая педагогика, образовательная технология, учебная мотивация, рефлексия, диагностика, цифровая система оценивания, непрерывное образование, компетенция, учебная активность.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim paradigmasi shaxsning har tomonlama rivojlanishini, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, tanqidiy yondashish va o'zini baholash qobiliyatlarini shakllantirishni asosiy maqsad qilib qo'yimoqda. Bugungi globalashuv davrida ta'lim tizimi inson kapitalining asosiy investitsiya sohasi sifatida mamlakat taraqqiyotida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish, o'qitish jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, innovatsion va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar bilan boyitish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda <sup>[1]</sup>.

Ayniqsa, umumiy pedagogika fanini o'qitishda zamonaviy baholash metodlarini joriy etish, ta'lim jarayonini faollashtirish, talabalarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish va ularning bilim olishdagi mas'uliyatini kuchaytirish bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan. Baholash jarayoni ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u faqat o'quvchilarning natijalarini o'lchash bilan cheklanmaydi, balki o'quv faoliyatining samaradorligini aniqlash, o'qituvchi faoliyatini tahlil qilish hamda o'qitish jarayonini uzluksiz takomillashtirish uchun zarur bo'lgan teskari aloqani ta'minlaydi <sup>[2]</sup>.

Shu jihatdan, formativ baholash metodikasi zamonaviy pedagogik tafakkurda eng samarali mexanizmlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Formativ baholash (inglizcha formative assessment) mohiyatan o'quvchi yoki talabning o'qish jarayonida bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradigan



doimiy tahliliy faoliyatni anglatadi. U o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida faol kommunikativ muhit yaratadi, refleksiya, kuzatuv va teskari aloqa asosida o'rganishning individuallashtirilgan jarayonini ta'minlaydi [3].

Formativ baholash tizimining asosiy maqsadi – o'quvchi faoliyatini yo'naltirish, unga o'z kamchiliklarini aniqlashda yordam berish, bilim olish jarayonida motivatsiyani oshirish va natijada o'rganish sifati hamda mustaqil fikrlashni rivojlantirishdan iboratdir. Bu jarayonda o'qituvchi nafaqat nazorat qiluvchi, balki o'rganish jarayonini yo'naltiruvchi, tahlil qiluvchi, maslahat beruvchi va rag'batlantiruvchi shaxsga aylanadi. Shunday qilib, formativ baholashning mohiyatida "baholash uchun o'qitish" tamoyili yotadi.

U an'anaviy summativ baholashdan farqli ravishda natijani emas, balki jarayonni markazga qo'yadi. Ta'lim jarayonida formativ baholash metodikasini qo'llashning dolzarbligi, avvalo, bugungi o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy muhitda shaxsning intellektual va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish zaruriyati bilan izohlanadi. Chunki zamonaviy jamiyatga shunchaki bilim egasi bo'lgan emas, balki uni amaliyotga tatbiq eta oladigan, mustaqil fikrlaydigan, ijodiy qarorlar qabul qila oladigan, o'z faoliyatini baholashga qodir insonlar kerak. Formativ baholash aynan shu kompetensiyalarni rivojlantiruvchi mexanizm sifatida ta'limning shaxsga yo'naltirilgan paradigmasiga to'liq mos keladi. Umumiy pedagogika fani nuqtayi nazaridan baholash jarayoni faqat o'quv natijalarini aniqlash emas, balki o'quv faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik-pedagogik jarayon sifatida qaraladi [4].

Formativ baholash bu jihatdan an'anaviy baholash tizimiga nisbatan sifat jihatdan yangi bosqichni ifodalaydi, chunki unda baholashning asosiy ob'ekti – talabning o'rganish jarayonidagi harakatlari, fikrlash jarayoni, o'z-o'zini nazorat qilish darajasi, refleksiv yondashuvi va mustaqil o'zlashtirish dinamikasidir. Shu sababli formativ baholash o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro hamkorlikka asoslangan, interaktiv teskari aloqani talab qiluvchi, o'quvchi faoliyatini tahlilga asoslangan tizimdir. Zamonaviy o'qitish jarayonida formativ baholashni joriy etishda bir qator muhim omillarni e'tiborga olish zarur.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda formativ baholash masalasi xalqaro ta'lim tadqiqotlarida eng faol o'rganilayotgan yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, ushbu metodikaning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari bo'yicha xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar formativ baholashni zamonaviy ta'lim paradigmasining ajralmas qismi sifatida talqin qilish imkonini bermoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar orasida ingliz olimasi Dylan Wiliam va amerikalik pedagog-tadqiqotchi Paul Blackning ishlarini alohida ta'kidlash lozim, chunki ularning ilmiy faoliyati formativ baholashning nazariy va amaliy tamoyillarini tizimli ravishda ishlab chiqishga bag'ishlangan. Dylan Wiliam va Paul Black o'zlarining mashhur "Inside the Black Box: Raising Standards through Classroom Assessment" asarlarida formativ baholashni "ta'limdagi teskari aloqa madaniyati" sifatida izohlaydilar [5]. Ularning fikricha, o'quv jarayonida bilimni o'lchash emas, balki o'rganishni qo'llab-quvvatlash, refleksiya va o'z-o'zini tahlil qilish jarayonlarini yo'lga qo'yish muhimdir.

Black va Wiliam formativ baholashni o'quvchilarning fikrlash faoliyatini rag'batlantiruvchi, o'qituvchining pedagogik qarorlarini asoslovchi hamda o'quv motivatsiyasini oshiruvchi metod sifatida talqin qiladilar. Ularning tadqiqotlarida formativ baholashning beshta markaziy komponenti ko'rsatib o'tiladi: o'rganish maqsadlarini aniqlash, o'quvchining hozirgi darajasini belgilash, teskari aloqa berish, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash va o'z-o'zini baholashni yo'lga qo'yish. Shuningdek, ular baholash jarayonining pedagogik dizaynini o'zgartirish zarurligini, chunki o'qituvchilar ko'pincha baholashni faqat natijani qayd etuvchi jarayon sifatida qabul qilishlarini, holbuki formativ baholash o'qitishning o'ziga xos mexanizmi bo'lishi lozimligini ta'kidlaydilar. Bundan tashqari, zamonaviy baholash tizimlarida raqamli texnologiyalar rolining ortib borishini tahlil qilgan amerikalik olim Margaret Heritagening "Formative Assessment in Practice: A Process of Inquiry and Action" nomli fundamental asari ham mazkur sohada muhim nazariy manba hisoblanadi [6].

Heritage o'z tadqiqotlarida formativ baholashni nafaqat didaktik vosita, balki o'quv jarayonini boshqarishning strategik mexanizmi sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha, o'qituvchilar formativ baholashni o'z dars amaliyotiga integratsiya qilganda, o'quvchilarda o'z o'rganish jarayonini kuzatish, natijalarni tahlil qilish va o'z strategiyalarini moslashtirish qobiliyati rivojlanadi. Heritage shuningdek, raqamli platformalar yordamida individual teskari aloqa va differensial baholash imkoniyatlarini kengaytirish formativ baholash samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi [7].

Ushbu olimlarning ilmiy qarashlarini tahlil qilar ekanmiz, ularni birlashtiruvchi umumiy g'oya – bu baholashni o'qitish jarayonining ajralmas tarkibiy qismiga aylantirish zarurligidir. Dylan Wiliam va Paul Black baholashni ta'lim sifatini oshirish vositasi sifatida ko'rsalar, Margaret Heritage uni o'quvchi shaxsining o'zini rivojlantirish jarayoniga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizm sifatida talqin etadi. Ularning qarashlarida formativ baholashning asosiy maqsadi – o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, o'qituvchining nazorat funksiyasini tahlil, maslahat va yo'naltirish funksiyasi bilan boyitish hamda o'quvchining o'z bilimlarini mustaqil ravishda boshqarish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi zamonaviy pedagogika fanining epistemologik tamoyillariga, xususan, konstruktivizm, kompetensiyaviy yondashuv va reflektiv-pedagogik paradigma konsepsiyalariga tayanadi. Formativ baholash metodikasini umumiy pedagogika fanini o'qitish jarayoniga joriy etish – bu faqat baholash tizimini yangilash emas, balki ta'lim falsafasini tubdan o'zgartirishni talab qiluvchi murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayondir. Shu bois, tadqiqotda sistemali, faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan, tahliliy va komparativ metodlar uyg'un tarzda qo'llanildi. Metodologik yondashuvlarning markazida konstruktivistik nazariya turadi. Ushbu nazariya asosida o'quvchi yoki talaba bilimni tayyor shaklda emas, balki faol o'rganish, tahlil qilish va qayta qurish jarayonida o'zlashtiradi. Demak, formativ baholash konstruktivistik o'qitish modelining ajralmas elementi sifatida o'quvchini passiv bilim oluvchidan faol bilim yaratuvchiga aylantiradi. Bunday yondashuv o'quv jarayonida reflektiv fikrlashni, o'z-o'zini baholashni va individual ta'lim strategiyalarini shakllantirishni taqozo etadi. Tadqiqotda qo'llanilgan faoliyatga yo'naltirilgan metod o'qitish jarayonini o'quvchining amaliy harakatlari hamda muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonlari bilan bog'lashga qaratilgan. Bu yondashuv formativ baholashning "baholash orqali o'rganish" tamoyiliga mos keladi, chunki bu metodikada o'qituvchi natijani nazorat qiluvchi emas, balki o'quvchining bilim olishini boshqaruvchi, yo'naltiruvchi va tahlil qiluvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa o'qituvchining baholash faoliyatini yangi professional darajaga olib chiqadi – u o'z faoliyatida tahlil, diagnostika va maslahat berish funksiyalarini birlashtiradi. Sistemali yondashuv formativ baholashni pedagogik tizimning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqishni ta'minlaydi.

Ta'lim jarayoni mazmun, metod, vosita, shakl va natija komponentlaridan tashkil topgan murakkab tizimdir. Shunday ekan, baholashni mazkur tizimdan ajratib bo'lmaydi. Formativ baholash tizimning barcha bo'g'inlari bilan uzviy bog'langan: o'quv maqsadlari baholash mezonlarini aniqlaydi, o'qitish jarayoni o'rganishni tashkil etadi, natija esa reflektiv tahlil orqali takomillashtiriladi. Sistemali yondashuv asosida baholash jarayonida "teskari aloqa sikli"ni shakllantirish muhim: aniqlash → tahlil → tuzatish → takomillashtirish → yangi natijaga erishish. Komparativ metod yordamida formativ baholashning xorijiy amaliyoti – Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Kanada va Janubiy Koreya ta'lim tizimlari misolida – o'rganildi. Ularning tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali formativ baholash tizimi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ochiq muloqotga, ishonchli teskari aloqaga va o'z-o'zini baholash madaniyatiga asoslanadi. Ushbu davlatlarda formativ baholash an'anaviy testlash tizimining o'rnini bosmagan, aksincha, uni to'ldiruvchi hamda o'quvchilarning chuqur o'rganish strategiyalarini shakllantiruvchi vosita sifatida joriy etilgan. Mazkur tajriba O'zbekiston ta'lim tizimida ham qo'llanishi mumkin, ammo bu jarayonda milliy ta'lim kontekstini, o'qituvchi tayyorgarlik darajasini va o'quvchilarning madaniy xususiyatlarini inobatga olish zarur.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Umumiy pedagogika fanini o'qitishda formativ baholash metodikasini joriy etish texnologiyasining ilmiy-amaliy natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur yondashuv o'qitish jarayonining sifat va samaradorlik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, formativ baholash tizimi o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi – interfaol, reflektiv va motivatsion bosqichini shakllantiradi. An'anaviy summativ baholashdan farqli o'laroq, formativ baholash o'qituvchining nazoratlovchi funksiyasini tahlilchi, kuzatuvchi va yo'naltiruvchi funksiyalarga almashtiradi. Bu esa ta'lim jarayonining demokratlashuviga va shaxsga yo'naltirilgan o'qitish tamoyilining amaliyotga chuqur singishiga xizmat qiladi. O'tkazilgan amaliy kuzatuvlar va diagnostik tahlillar asosida aniqlanishicha, formativ baholash metodikasini qo'llagan guruhlarda o'quvchilar va talabalar o'z-o'zini baholash, refleksiya va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini yuqori darajada namoyon etgan. Ular o'z o'quv faoliyatining zaif va kuchli jihatlarini mustaqil aniqlashni, teskari aloqani konstruktiv qabul qilishni hamda baholash jarayonini o'z rivojlanish mexanizmi sifatida idrok etishni o'rganishgan. Bu holat o'qitish jarayonida bilimlarni mustahkamlash, fikrlashning izchilligi va kreativ yondashuvni kuchaytirgan.

Natijalar shuni ham ko'rsatdiki, formativ baholash metodikasini tatbiq etish o'qituvchilarning kasbiy refleksiya-yasini faollashtiradi. O'qituvchilar o'z dars jarayonlarini tizimli tahlil qilish, o'quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va ta'lim strategiyalarini moslashtirish ko'nikmalarini rivojlantirgan. Bu esa pedagogik faoliyatda o'z-o'zini baholash madaniyatining shakllanishiga, ta'lim jarayonining individuallashtirilishiga va pedagogik monitoring tizimining takomillashtirishiga olib kelgan. Formativ baholash metodikasining nazariy talqinlari bo'yicha zamonaviy pedagogik adabiyotlarda turli qarashlar mavjud bo'lib, ular asosan baholashning o'quv jarayonidagi roli va maqsadi haqidagi polemikaga tayanadi. Bu borada taniqli ingliz tadqiqotchisi Paul Black va shotlandiyalik pedagog olimi Dylan Wiliam formativ baholashni "o'qitish jarayonini takomillashtiruvchi eng muhim strategik vosita" sifatida talqin etadilar. Ularning fikricha, baholashning asosiy vazifasi – o'quvchilarning o'rganish jarayonidagi fikrlash faoliyatini tahlil qilish, ularni o'z-o'zini tahlil qilishga va refleksiya asosida o'z bilimlarini boyitishga yo'naltirishdir. Black va Wiliamning ilmiy konsepsiyasi, xususan, ularning "Assessment for Learning: Beyond the Black



Box” nomli asarida, formativ baholash jarayonini o’quvchilarning o’quv faoliyatiga chuqur integratsiyalashgan hamkorlik tizimi sifatida tasvirlaydi. Ularning ta’kidlashicha, “baholash natija uchun emas, o’rganish uchun” bo’lishi kerak – bu esa ta’lim jarayonini statik nazoratdan dinamik rivojlanish tizimiga aylantiradi <sup>[8]</sup>.

Biroq boshqa tadqiqotchilar, xususan, kanadalik olim Lorna M. Earl, formativ baholashning haddan tashqari individualistik tus olishi ta’lim tizimining umumiy standartlashtirish mexanizmlarini zaiflashtiradi degan fikrni ilgari suradi. Uning fikricha, agar baholash jarayoni to’liq o’quvchi markazida tashkil etilsa, o’quv natijalarining obyektivligi va taqqoslanish imkoniyati kamayadi. Earl o’zining “Assessment as Learning: Using Classroom Assessment to Maximize Student Learning” nomli monografiyasida formativ baholashni “o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi dialogik nazorat shakli” deb ataydi. Biroq u bu yondashuvning muvaffaqiyati o’qituvchining metodik saviyasi, refleksiv kompetensiyasi va baholash madaniyatiga bog’liq ekanligini alohida ta’kidlaydi. Uning nuqtai nazaricha, formativ baholash natijalari an’anaviy summativ baholash kabi standartlashtirilmagan bo’lgani uchun, ularni tizimli pedagogik tahlilga tatbiq etish qiyin <sup>[9]</sup>. Black va Wiliam bilan Earlning pozitsiyalarini tahlil qilganda, ularning farqi asosan baholashning ijtimoiy-pedagogik mohiyatiga yondashuvda ko’rinadi. Black va Wiliam formativ baholashni demokratik ta’lim tamoyillarining amaliy ifodasi sifatida, ya’ni o’quvchini faol ishtirokchi, o’z ta’limi subyekti sifatida ko’rishadi. Ularning yondashuvi o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi sheriklikni, o’zaro teskari aloqaning markaziy ahamiyatini ta’kidlaydi. Earl esa bu yondashuvni metodik jihatdan qo’llash jarayonida murakkab muammolar yuzaga kelishini – xususan, o’qituvchilarning baholash mezonlarini bir xil talqin qilmasligi, o’quvchilarning refleksiv tayyorgarligi har xil darajada bo’lishi kabi omillarni ko’rsatadi.

Ilmiy nuqtayi nazardan, bu polemika formativ baholashning universal model sifatida qo’llanishida cheklolvar mavjudligini ko’rsatadi <sup>[10]</sup>. Biroq Black va Wiliam ilgari surgan “o’rganish uchun baholash” konsepsiyasi o’zining pedagogik ahamiyati, motivatsion kuchi va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlari bilan bugungi ta’lim jarayonida ustunlikka ega. Earlning tanqidlari esa formativ baholashni tatbiq etishda real sharoitlarni, o’qituvchilarning tayyorgarlik darajasini va o’quvchilarning mustaqillik salohiyatini inobatga olish zarurligini eslatadi. Shu tariqa, mazkur ilmiy bahslar shuni ko’rsatadiki, formativ baholash metodikasi muvaffaqiyatli ishlashi uchun uni faqat baholash tizimi sifatida emas, balki o’qitish falsafasi sifatida qabul qilish lozim.

## XULOSA

Umumiy pedagogika fanini o’qitishda formativ baholash metodikasini joriy etish texnologiyasi ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadigan, shaxsga yo’naltirilgan yondashuvga asoslangan ilmiy-pedagogik innovatsiya sifatida e’tirof etiladi. Tadqiqot davomida olib borilgan nazariy tahlillar, xorijiy tajribalarni o’rganish hamda amaliy kuzatuvlar natijalari shuni ko’rsatdiki, formativ baholash metodikasi ta’lim jarayonida o’quvchi va o’qituvchi o’rtasidagi o’zaro hamkorlikni mustahkamlaydi, o’qitishning refleksiv, interfaol va motivatsion asoslarini kuchaytiradi. Ushbu metodika o’quvchilarning mustaqil fikrlash, o’zini baholash, tanqidiy yondashish ko’nikmalarini shakllantirishga yordam beradi hamda ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida o’zini oqlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Sattorov, V. N. (2023). “Umumiy pedagogika” fanini o’qitishdagi innovatsiyalar. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 3(1), 734–745.
2. Likhonosova, G., Nenchewa, I., Ismailov, T., Gorka-Chowanec, A., & Mitkov, M. (2024). Financial Aspects of Socio-Economic Rejection in Ukraine in Conditions of Economic Turbulence. *Access to Science, Business, Innovation in the Digital Economy*, ACCESS Press, 5(2), 248–262.
3. Abdvliyevich, A. A. (2025). Pedagogika fanining rivojlanish tarixi va asosiy bosqichlari. *Journal of New Century Innovations*, 76(1), 283–285.
4. Shohbozbek, E. (2025). Bo’lajak pedagoglarning tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirishning konseptual asoslari. *Global Science Review*, 1(1), 328–338.
5. Islomovich, I. T., & Ravshanbekovich, G. S. (2023). Development of Pedagogical Competence in Future Teachers. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 5(04), 12–16.
6. Sh., E. (2025). Developing the Spiritual Worldview of Young People through the Continuous Education System in Uzbekistan. *Ob’edinyaya studentov: Mejdunarodnye issledovaniya i sotrudnichestvo mejdu distsiplinami*, 1(1), 314–316.
7. Ismoilov, T. (2020). The Development of Physical Qualities of the Pupils of Primary Forms of Secondary Schools through Mobile Activities in the Process of Study. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(11), 391–394.
8. Ergashbayev, S. (2025). Yoshlarning ma’naviyat dunyoqarashini rivojlantirishda uzluksiz ta’lim.
9. Ismoilov, T. I. (2019). Social and Legal Solutions of Insurance Mandatory Recommendations. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(3), 152–154.
10. Jurayev, B. T. (2022). Pedagogik va psixologik fanlarni o’qitish metodikasi. *Buxoro: Fan va ta’lim*.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.